KASHTADO'ZLIK SAN'ATI

Oygul Axmedova,
O'zMMSI "Doston ijrochiligi" kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kashtado'zlikning qadimiy amaliy san'at turi sifatidagi shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va badiiy xususiyatlari yoritilgan. O'rta Osiyoda, xususan, o'zbek kashtachiligining rivojlanish bosqichlari, hududiy maktablari hamda ularning o'ziga xos uslublari tahlil qilingan. Ayniqsa, Nurota kashtachilik maktabining kompozitsion tuzilishi, naqsh motivlari, ramziy ma'nolari va badiiy bezak xususiyatlari keng yoritib berilgan. Shuningdek, kashtado'zlikda qo'llaniladigan chok turlari, naqsh elementlarining mifologik va ramziy talqini hamda zamonaviy kashtachilikdagi an'anaviylik va yangilanish jarayonlari tahlil etilgan.*

Аннотация: *В статье рассматривается вышивка как древний вид декоративно-прикладного искусства, её историческое формирование и художественные особенности. Анализируются этапы развития узбекской вышивки в Средней Азии, региональные школы и их стилистические различия. Особое внимание уделено нуротинской школе вышивки, её композиционной структуре, орнаментальным мотивам и символическому значению узоров. Также раскрываются виды швов, мифологические и символические элементы орнамента, а также вопросы сохранения традиций и их трансформации в современном искусстве.*

Annotation: *This article explores embroidery as an ancient form of decorative and applied art, examining its historical development and artistic characteristics. It analyzes the evolution of Uzbek embroidery in Central Asia, highlighting regional schools and their distinctive stylistic features. Particular attention is given to the Nurota embroidery school, its compositional structure, ornamental motifs, and symbolic meanings. The study also discusses traditional stitching techniques, mythological and symbolic*

elements of patterns, and the continuity and transformation of embroidery traditions in contemporary practice.

Kalit so'zlar: *kashtado'zlik, amaliy san'at, so'zana, Nurota kashtachiligi, naqsh, islimiy, qo'chqorshoxi, ramziy motiv, kompozitsiya, an'ana va zamonaviylik.*

Ключевые слова: *вышивка, декоративно-прикладное искусство, сюзане, нуротинская школа, орнамент, исламий, мотив «бараний рог», символика, композиция, традиция и современность.*

Key words: *embroidery, decorative and applied art, suzani, Nurota school, ornament, islimi pattern, ram's horn motif, symbolism, composition, tradition and modernity.*

Kashtado'zlik amaliy san'atning qadimiy sohalaridan biridir. Arxeologik topilmalar kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi.

Kashtado'zlikning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga o'tish bilan, shuningdek, to'qish, mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar bilan bog'liq.

O'rta Osiyoda kashtado'zlik mahsulotlarining qadimiy xillari deyarli saqlanmagan. Mo'zeylardagi palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat XIX asrga mansub. XIV—XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar kashtado'zlikning bu yerda qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari o'rtasida kashtado'zlik keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va boshqa)ning asosiy qismlari har bir xonadonning o'zida tayyorlangan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o‘zbek kashtado‘zlarining katta san’atidan dalolat beradi. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqand kashtado‘zlik mahsulotlari ko‘proq yo‘rma chok bilan, Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko‘proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar kashtado‘zlik an’analariga, mahsulotning turlariga ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, hozir bo‘g‘joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Paranji, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylarda yoki biror marosimdagina uchratish mumkin. Do‘ppi, sumka, nimcha, kovush, kirpech, so‘zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilmoqda, shakl va badiiy bezaklarida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi.

O‘zbek kashtado‘zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san’atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olganlar, kashtalarda o‘simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko‘p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o‘rtasida bo‘lib, hoshiyalar qo‘shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko‘p. Masalan, kashtachilikda qadimiy naqqoshlik san’ati yodgorliklar naqshlari bilan umumiylik, o‘xshashlik xususiyatlariga ega bo‘lgan motivlar bilan birga doira gil — oy (oy va quyosh tasviri), qush va qo‘chqorshoxi kabi simvolik ma’noli arxaik motivlar ham uchraydi. Qo‘chqorshoxi yoki qo‘chqorak turkiy xalqlar ornament san’atiga xos naqsh bo‘lib, kashta turlarida (do‘ppi, jiyak, qiyiqcha, so‘zana va boshqalardir), gilamchilik ornametikasida, kulolchilikda, o‘ymakorlikda va tasviriy san’atning boshqa ko‘p sohalarida uchraydi. Ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islimiy gullar kashtado‘zlikda ham ko‘p uchrashi chizmakashlar amaliy bezak san’atining turli sohalariga chizmalar tayyorlaganini ko‘rsatadi.

Kashtado‘zlikda chizmakashlar yaratgan naqshlar asosida kashtado‘zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashtado‘zlikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari: igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona, chambarak; keng tarqalgan chok turlari: bosma, kandaxayol, chindaxayol, xomdo‘zi, yo‘rma, iroqi popur, ilmoq, baxya va boshqalar.

Kashtachilar “iroqi”, “bosma” (sirtga bottirib tikish), “yo‘rma” (zanjir kashta) usullarini tikish jarayonida o‘zlari

eshgan iplarni ishlatganlar. Faqat "qizgilam"ning kashta guliga moslab taxlangan kigiz parchalari ustalik bilan tikilganidan choklari ham sezilmagan, ustidan esa "bosma", chetlaridan "yo'rma" usullarida qirmizi mato parchalari yopishtirib chiqilgan, boshqa "qizgilam"lar esa paloye texnikasida "kokma" usulida tor qaviqdi dastgohda tikilgan va ustidan qo'lda kashta tushirilgan.

XIX asr boshlaridagi kashtalarning qadimgi davr O'rta Osiyo mifologik timsollari va ana shunday asarlari bilan qiyosiy tahlili ular naqsh elementlarining vorisligini aniqlash imkonini beradi. Kashtalarda asosiy o'rinni egallovchi doyra islimiy uslublar bilan bir qatorda qadimiylik belgisi hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlarida doyra Quyoshni, ko'pincha Oyni bildirgan. Asrlar o'tsa hamki, naqshdagi baxt-iqbol, farovonlik, to'kin-sochinlikni ifodalovchi an'anaviy shakllar gilam to'qish va kashtachilikda hamon qo'llanib kelinmoqda.

Kashtachilikning yirik markaz-laridan biri sanalgan Nurota asrlar mobaynida kashtalarning tasvir aniqligi, o'simlik naqshlarining serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Bu maktabda qo'llaniladigan kompozit-siyalarni Buxoro, Shahrisabz, ayrim unsurlarini hatto Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yaratilgan kashtachilik asarlarida uchratishimiz mumkin.

XIX asrda Nurota kashtalari gulli guldastalar bilan bezatilib, matoning oq foniga tig'iz (zich) to'ldirilmagan. Nurota kashtachiligi o'zining gulli motivlarining boyligi va rang-barangligi bilan O'zbekiston kashtalari orasida birinchi o'rinda turadi.

Nurota kashtachiligida ko'pincha o'simlik naqshlarining qushlar shakli bilan jonlantirilganligiga nazarimiz tushadi. Ba'zan esa ko'z ilg'amaydigan ayrim joylarda odam va hayvonlar shaklini ham uchratishmiz mumkin. U yorqin va nafis ranglarda "bosma" choki bilan tikilib, cheti (zigi, raxi) esa "zanjircha" choki bilan bostiriladi.

Nurota kashtachiligida mato markazida sakkiz qirrali yulduz va maydonning to'rt burchagida katga guldastali yopiq kompozisiyali so'zanalar keng tarqalgan. Kompozitsiyaning bunday turi Nurotada "chor shoxu yak moh" – "to'rt shoxu bitta oy" degan ma'noni anglatadi. Bunday so'zanalar kompozitsiyaning aniq tuzilishi (joylashuvi) hamda alohida bo'laklarning

(detallarning) mutanosibligi bilan boshqa so‘zanalardan farqlanadi. So‘zananing markaziy maydonining burchaklaridan o‘rtaga qarab bo‘y cho‘zgan diagonal tarzda qarama-qarshi joylashgan guldasta gullari shakl jihatidan bir- biriga yaqin, lekin detallarning o‘zgarishi bilan farqianadi. Chizmakash mohirlik bilan so‘zananing bo‘shliqlariga katta va kichik hajmdagi shoxlarni (qo‘chqor shoxi) motivlarning yakunlovchi vositasi o‘rnida joylashtirib chiqqan.

So‘zanalarda o‘simlik dunyosining namoyish etilish bejiz emas, albatta. O‘simliklar, mevalar, gullar so‘zana tikuvchi ayollar doimiy ravishda murojaat etib kelgan mavzu bo‘lgan. So‘zanalarda hayvonlar tasviri kamdan-kam uchraydi. Odatda, ular o‘simliklarni aks ettiruvchi naqshlar orasida bilinmay ketadi. Bunday tasvirlar ko‘pincha qushlar, baliqlar, otlar, hatto ilon va chayonlar bo‘lgan. Bir juft qushning tasviri muhabbat va sevishganlarni ifodalagan. Tovus, qirg‘ovul, kaklik esa quyosh tafti, to‘kin-sochinlik, qut-baraka ramzi bo‘lgan. Baliqlar nisbatan kam tasvirlangan, san’atda esa ular serhosillikka qiyoslanadi. Buxoro kashtachiligida otlar tasviri ko‘p uchraydi, ular o‘z navbatida, boylik va baraka tilash bilan tengdir. Ilon va chayonlarning tasviri ham ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Bu zaharli mavjudotlar yomon ko‘zdan, kinna va suqlardan himoyalovchi tumor sifatida qabul qilingan.

Tabiiyki, qadimiy so‘zanalarda uchraydigan ma’no va talqin zamonaviy ustalarning ishlarida u qadar ko‘zga tashlanmaydi. Shunday bo‘lsa-da, avloddan-avlodga o‘tib keladigan so‘zana san’atida an’anaviy naqshlar namunali deya e’tirof etib kelinadi. So‘zana naqshlari asrlar davomida sirli xilqatdek o‘ziga bir olam sir-sinoatni jo etib, insonni yaxshilik va ro‘shnolik, ezgulik va go‘zalikka chorlab kelgan.

Hozirgi kunga qadar kashtachilik an’analariga e’tibor kuchli. Bu asosan tayyorlangan matolarda, ularning mavzularida o‘z aksini topadi. Nurota kashtachiligi hamisha ajdodlar an’analarini asrovchi va zamonaviy ruh berib ularni davom ettiruvchi xilqat bo‘lib qolaveradi. U kishilarga bitmas-tuganmas badiiy zavq ulashaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova O. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2021.

2. Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. Tuzuvchilar: S.S.Bulatov, M.O.Ashirova. Mas’ul muharrir: P.Sh.Zohidov – arxitektura fanlari doktori. Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent, 1992.-48 b.

3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T., 2000—2006 yil, 1—12-tom.